

## O'ZBEKISTONDAGI QOZOQLARINING AN'ANAVIY TAOMLARI

**Shodiqulov Eldor Sherzodovich**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

**Annotatsiya:** mazkur maqolada O'zbekistondagi qozoqlarining an'anaviy taomlar turli marosimlari (tug'ilish, to'y, dafn va bayram marosimlari) va ularda tayyorlanadigan an'anaviy taomlar tarixiy-etnografik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda dala kuzatuvlari, intervyular asosida taomlarning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy funksiyalari ochib berildi. Shu orqali marosimiy gastronomiya orqali milliy o'zlikni anglash etnomadaniy xususiyatlar aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** Qozoqlar, marosimlar, an'anaviy taomlar, etnomadaniy xususiyatlar, ijtimoiy, ma'naviy, funksiyalar.

Qozoq xalqining marosimlari nafaqat diniy va ijtimoiy vazifalarni bajaradi, balki milliy o'zlikni anglash va madaniy qadriyatlarni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Marosimiy taomlar esa, o'z navbatida, jamiyatni birlashtiruvchi va oilaviy barakani mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Marosimlar quyidagi turlarga bo'linadi: tug'ilish va bolaning birinchi marosimlari, to'y, dafn, bayram va mavsumiy marosimlar. Har bir marosimda tayyorlanadigan taomlarning tarkibi, pishirish usuli va ramziy ma'nosi mavjud bo'lib, ular qadimiy turkiy e'tiqodlar va islomiy an'analar uyg'unligini aks ettiradi.

Tug'ilish va bolaning birinchi marosimlariga to'xtaladigan bo'lsak qozoqlarda chaqaloq tug'ilganda eng muhim marosimlardan biri – besik tuyu

(beshik to'ylash<sup>1</sup>) hisoblanadi. Ushbu marosimda tayyorlanadigan taomlar asosan chaqaloqning sog'lom o'sishi, immunitetining mustahkamlanishi va oilaviy barakani ta'minlashga qaratilgan. Masalan, yangi sog'ilgan ot sutidan tayyorlanadigan kumis<sup>2</sup> "hayot suvi" sifatida qaraladi va chaqaloqni kuchli qilish uchun beriladi. Sut va sutli mahsulotlar ona sutiga bog'liq sog'liq va baxt ramzi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, chaqaloq tug'ilganda tandirda pishirilgan non va palov oilaviy baraka va jamiyat bilan birlik ramzi bo'lib, mehmonlar uchun choy va shirinliklar esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qozoq oshxonasiga o'zbek, rus, uyg'ur, tatar, koreya, dungan xalqining ta'siri sezilarli darajada bo'lgan<sup>3</sup>. Zamonaviy davrda ushbu xalqlarning ta'siri qozoq xalqining marosimlari, bayramlari va shu bilan birga taomlarida ham aks etadi. Aytib o'tish joizki palov taomi o'zbek oshxonasidan o'tgan bo'lsa-da, qozoq xalqi marosimlarida asosiy gtaomlardan biri hisoblanadi.

To'y marosimlarida ya'ni kelin-kuyov nikohi, nafaqat nikohni rasmiylashtirish, balki oilalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. To'y marosimida tayyorlanadigan eng muhim taomlardan biri – beshbarmoq bo'lib, u baraka va boylik ramzi hisoblanadi. Shu bilan birga, kurdak (qovurilgan go'sht va sabzavotlar) mehmondo'stlik va oilaning qudratini ifodalaydi. Boursak<sup>4</sup> mehmonlarni kutib olish va bayram kayfiyatini oshirish uchun tayyorlanadi. Bu taomlarga qo'shimcha ravishda sho'rva oilaviy birlik va oshxonadagi hamkorlik ramzi sifatida xizmat qiladi. To'y marosimida har bir

<sup>1</sup>. Qarang: Besik tuyu - qozoq xalqida yangi tug'ilgan chaqaloqni ilk bor beshikka yotqizish bilan bog'liq muhim an'anaviy marosimlardan biri.

<sup>2</sup>. "Kumis" - ot sutiga xamirturish va ba'zi fermentlar qo'shib tayyorlanadigan ichimlik (qimiz).

<sup>3</sup>. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2024-yil.

<sup>4</sup>. "Boursak" - qovurilgan non bo'laklari.

taomning o'ziga xos ramziy ma'nosi mavjud bo'lib, u ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va mehmonlarga hurmat ko'rsatish bilan bog'liqdir.

Qozoqlarda dafn marosimlari bilan bog'liq taomlar alohida ahamiyatga egadir. An'anaviy e'tiqodlariga ko'ra, marhumni xotirlash marosimlarining zarurati ikki jihatdan izohlanadi:

- birinchidan, bu marhumga hurmat ko'rsatish sifatida;
- ikkinchidan, ruh abadiy yashaydi degan e'tiqod tufayli<sup>5</sup>.

Qozoq an'anasiga ko'ra xotirlash marosimi "as"<sup>6</sup> deb ataladi. Marhumni xotirlash va oilaviy birlikni mustahkamlash maqsadida tayyorlanadigan asosiy taomlar – shorpa va kozhe hisoblanadi. Shorpa(sho'rva) go'shtli va sabzavotlar bilan tayyorlanib, marhumning ruhiga duolar va oilaga hamdardlik ramzi sifatida mehmonlarga beriladi. Kozhe<sup>7</sup> esa sut, don va sabzavotlardan tayyorlanadi va bu taom ijtimoiy birlik sifatida ifodalanadi. Shuningdek, mehmonlar va qarindoshlar uchun non va choy ham taqdim etiladi, bu esa hurmat belgisi hisoblanadi. Xalqning dafn marosimlarida taomlar qadimiy turkiy e'tiqod va islomiy an'analar uyg'unligini aks ettiradi, oilaviy va qabila birliklarini mustahkamlaydi<sup>8</sup>.

Qozoqlarda bayram va mavsumiy marosimlar, xususan Navro'z bayrami, tabiat bilan uyg'unlik va jamiyatdagi birlikni ta'kidlaydi. Bu marosimda eng muhim taom – "Nauryz kozhe" bo'lib, u yetti turdagi sirli mahsulotdan tayyorlanadi: suv (hayot), go'sht (farovonlik), tuz (poklik), don (boylik), sut

<sup>5</sup>. Bijanova A.E. Kalmenov M.D. Қазақтың өлгендерге арналған дәстүрлі азаматтық ережелері. Kazakhstan. 2025.

<sup>6</sup>. "As" yoki "As beru" — vafot etgan insonni yodga olish uchun o'tkaziladigan katta marosim. U faqatgina oddiygina eslash emas, balki marhumning ruhiga hurmat ko'rsatish, duo qilish va el-yurtni yig'ish ma'nosini ham anglatadi.

<sup>7</sup>. "Kozhe" - sutga don yoki arpa mahsulotlari solinib tayyorlanadigan ichimlik.

<sup>8</sup>. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2025-yil.

mahsulotlar (unumdorlik), tariq (quvonch) va yog' (sog'liq)dir. Ushbu taom hayot boyligi va ijtimoiy birlikni ramziy ifodalaydi. Bu taom qozoq madaniyatida alohida o'rin tutadi: u yangilanish, farovonlik va kelgusi yil uchun samarali umidni ramziy ma'noda anglatadi<sup>9</sup>. Kozhe ushbu bayramda har bir xonadonda tayyorlanadi. Qo'ni qo'shnilar va qarindosh urug'lar yetti xonadonga mehmon bo'lib borishadi. Odatda yetti soni qozoqlarda omad keltiruvchi son sifatida ishoniladi<sup>10</sup>. Shuningdek, sutli pishiriqlar va go'shtli taomlar bayram kayfiyatini oshirish va oilaning farovonligini ta'minlash uchun tayyorlanadi. Shirinliklar va boursaklar mehmonlarni kutib olish va bayram ruhiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashi lozimki, Qozoq xalqining marosimlarida tayyorlanadigan taomlar ijtimoiy, ma'naviy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Tug'ilish, to'y, dafn va bayram marosimlaridagi taomlar nafaqat oziq-ovqat vazifasini bajaradi, balki oilaviy va jamoaviy barakani oshirish, qadimiy turkiy hamda islomiy an'analarni uyg'unlashtirish va milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir taomning tayyorlanish sababi uning ramziy ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, bu orqali jamiyat va oilaning ijtimoiy va ma'naviy strukturasi aks ettiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qarang: Besik tuyu - qozoq xalqida yangi tug'ilgan chaqaloqni ilk bor beshikka yotqizish bilan bog'liq muhim an'anaviy marosimlardan biri.

<sup>9</sup>. Ayazhan Batyrbek \*, Lismi Animatul Chisbiyah. Exploring the role of traditional food in developing tourism in Kazakhstan. 2025.

<sup>10</sup>. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2025-yil.

2. "Kumis" - ot sutiga xamirturish va ba'zi fermentlar qo'shib tayyorlanadigan ichimlik (qimiz).
3. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2024-yil.
4. "Boursak" - qovurilgan non bo'laklari.
5. Bijanova A.E. Kalmenov M.D. Қазақтың өлгендерге арналған дәстүрлі азаматтық ережелері. Kazakhstan. 2025.
6. "As" yoki "As beru" — vafot etgan insonni yodga olish uchun o'tkaziladigan katta marosim. U faqatgina oddiygina eslash emas, balki marhumning ruhiga hurmat ko'rsatish, duo qilish va el-yurtni yig'ish ma'nosini ham anglatadi.
7. "Kozhe" - sutga don yoki arpa mahsulotlari solinib tayyorlanadigan ichimlik.
8. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2025-yil.
9. Ayazhan Batyrbek \*, Lismi Animatul Chisbiyah. Exploring the role of traditional food in developing tourism in Kazakhstan. 2025.
10. Dala yozuvlari. Navoiy viloyati, Tomdi tumani, Tomdi qishlog'i. 2025-yil.